

**“HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI” FANINING TA’LIM SOHASIDA TUTGAN
O’RNI VA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI**

Ziyodulloev Baxriddin Mardonovich

*O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Buxoro viloyati
Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fanining o‘rni, uning amaliy ahamiyati va mavjud muammolar tahlili yoritilgan. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fan dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, bunda izchillik va uzviylik, uzluksizlik, oddiydan murakkabga tamoyillariga tayanish, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *favqulodda vaziyat, talaba, ta’lim jarayoni, hayotiy faoliyat xavfsizligi, o‘quv dasturlar, tabiiy va texnogen xavflar, takomillashtirish.*

Аннотация: *В статье описывается роль предмета “Безопасность жизнедеятельности” в высших учебных заведениях, ее практическое значение и анализ существующих проблем. Приведено совершенствование учебных программ безопасности жизнедеятельности на основе современных требований, в том числе опираясь на принципы системности и последовательности, преемственности, от простого к сложному, развития интереса учащихся к предмету и повышения эффективности обучения.*

Ключевые слова: *чрезвычайная ситуация, студент, учебный процесс, учебные программы, природные и техногенные опасности, безопасность жизнедеятельности, совершенствование.*

Mamlakatimiz davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xavfsizlikni ta‘minlash, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishdan iboratdir. Bu esa favqulodda vaziyatlarni oldindan aniqlash va aholini bu xavfdan ogohlantirish borasida samarali tadbirlar o‘tkazish, favqulodda vaziyat ro‘y berganda tezkor harakat qilish, insonlarning qurbon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, iqtisodiy zarar kam bo‘lishi va xavfsizlikni o‘z vaqtida ta‘minlashni taqozo etadi.

Statistik tahlillarga ko‘ra, oxirgi yillarda jahonda va O‘zbekiston hududida favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishining oshib borayotganligini kuzatilmoqda.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi yirik masshtabdagi tabiiy ofatlar va halokatlarning oqibatlarini bartaraf etish tajribasidan kelib chiqib aytish lozimki, ularning oqibatlarini yumshatishning yagona yechimi – fuqarolarning tayyorgarligini oshirishdir. Bularning barchasi kundalik ko‘ngilsiz hodisalarga ham tegishlidir [6].

So‘nggi yillarda dunyoda juda ko‘plab o‘zgarishlar yuz berdi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni joriy etish, fanlararo aloqalarni kengaytirish va professional

qiziqishlarni o'zgartirish amalga oshirildi. Bularning barchasi faol ijtimoiy va kasbiy maqeiini namoyon eta oladigan, turli hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan yangi mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Aynan ta'lim odamlarga sodir bo'lgan o'zgarishlarga moslashishga va yangi tizimida o'zlarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash, fuqarolarni bunday vaziyatlar ro'y berganda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish, xavfli tabiiy jarayonlar kuchayishi bilan bog'liq mavjud xatarlar, shuningdek, texnogen avariya va halokatlar xavfi to'g'risida o'z vaqtida

va aniq xabardor qilish tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida: "Aholini maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarida, ishlab chiqarishda hamda yashash joyida favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish umumiy va majburiydir" [1], - deb ta'kidlanganligi, Taraqqiyot strategiyasida "atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan... favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish" [2], masalasining qo'yilganligi ta'lim jarayonida "Hayotiy faoliyat xavfsizligini"ni fanini o'qitish samaradorligini oshirish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Hozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotganligi, mamlakatimizda fuqaro muhofazasini ta'minlash, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xorijiy mamlakatlar tajribasini amalda qo'llay olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'rganishni taqazo etmoqda.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida o'qitishning ilg'or xorij mamlakatlar tajribalarini o'rganish, amaliy kuzatishlar va tahlillar o'tkazish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyat dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ta'lim tizimini takomillashtirish borasida, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham ta'lim tizimi oldiga juda katta vazifa va mas'uliyatni yukladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-sonli qarorining 4-bandi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofazasi yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish [4] va ta'lim jarayoniga joriy etilishini ta'minlash belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini inson faoliyatining barcha sohalarida muhofazalashda "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fani asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Ushbu fan o'zida Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va hududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamrab oladi. Hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferada ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiena me'yor va qoidalarini yaratilmasligi, muhit rivojlanishdagi noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar hamda vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof-muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan.

"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini prognozlash va ularning oldini olish qoidalarini o'rgatish, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohatlanganlarga birlamchi yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuvini hamda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida amaldagi "Hayotiy faoliyati xavfsizligi" fani o'quv dasturi to'rt bo'limni qamrab olishi belgilab qo'yilgan:

- hayotiy faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari;
- fuqaro muhofazasi;
- yong'in xavfsizligi;
- birinchi tibbiy yordam asoslari.

“Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fani o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta’lim jarayoniga joriy etilishini ta’minlash vazifalari belgilanishi bilan bir qatorda, bugungi kunda mazkur fanni o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni quyidagicha izohlash mumkin:

-amaldagi o‘quv rejalarida “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fani turli soatlardan iborat, qolaversa ayrim oliy ta’lim muassasalari o‘zlari uchun alohida fan dasturlarini ishlab chiqqan;

-bakalavrlar uchun “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” mutaxassislik yo‘nalishlariga o‘tiladigan “Yo‘nalishga kirish”, “Mehnat muhofazasi”, “Avariya- qutqaruv ishlari”, “Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi” fanlari tarkibida mavzularning takrorlanib kelishi holati mavjudligi sababli “Fan dasturlari”ni o‘zaro muvofiqlashtirish zaruriyati mavjud;

-“Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fanini boshqa fanlar bilan jumladan ekologiya, gigiena, yurisprudensiya, tibbiyot, jismoniy tarbiya, harbiy soha kabilar bilan yaqin integratsiyalashuvida ba’zi bir noaniqliklar va kamchiliklar mavjud.

Bugungi kunda favqulodda vaziyatlar tahlikasi kuchayib borayotganligini hisobga olgan holda fan dasturlarini inson faoliyatida vujudga keluvchi barcha xavflar, xavflar maydonidagi xavfsizligini ta’minlash masalalariga qaratilgan mavzular asosida ishlab chiqishda ta’limning izchilligi tamoyillaridan og‘ishish holatlarini kuzatish mumkin. Masalan: “Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi” fan dasturining 1-moduli “Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlar muhofazasi” deb nomlangan bo‘lib, modul tarkibidagi 3-ma’ruza mavzusi “Favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi. Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tartibi” deb nomlangan o‘quv dasturining 3-moduli “Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini” deb nomlangan bo‘lib, moduldagi 1-mavzu “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil

7-oktabdagi “Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-son Qarorning mohiyati deb nomlanadi. Har ikki ma’ruza mashg‘uloti shu o‘rinda aynan takrorlanadi. Bunday takrorlanishlar bilimlarni yanada boyituvchi materiallar asosida mustahkamlash, takomillashtirishga to‘sqinlik qiladi.

Modullar va mavzular tanlanganda muayyan izchillik va uzviylik va uzluksizlik, oddiydan-murakkabga rivojlanib borishida noaniqliklar mavjud. Masalan: “Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi” fan dasturining 2-moduli “FVDT organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyati” deb nomlanadi va bunda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, uning kuch va vositalari, davlat tizimining faoliyat rejimlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligining FVDTda tutgan o‘rni bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarini qamrab oladi [5]. Undan keyingi “Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini” deb nomlangan

3-modulda geologik, gidrometeorologik, epidemiya, epizootiya kabi favqulodda

vaziyatlar yoritiladi natijada yana takrorlanadi. Ya'ni avval favqulodda vaziyatda ishlaydigan tizim, so'ngra favqulodda vaziyat o'zi nima ekanligi yoritilishi nazarda tutilgan.

Bu o'z navbatida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda talabalarning zo'riqishiga olib keladi, o'zlashtirish qiyinlashadi. Bilimlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va bu qiyinchiliklarning doimiy ravishda kuzatilishi talabalarda fanga nisbatan qiziqishni susaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga oid qator Qonun va qarorlarida jamiyatga yordam ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolik nuqtai nazarini, o'zini o'zi tashkil etishni, ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik, o'zaro yordam berish masalalarini belgilashda aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mexanizmlarning fan dasturlarida asosiy negizini ochib berilishiga erishish yetarlicha tashkil etilmasligi natijasida tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga to'liq javob bermasligiga sabab bo'ladi.

"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini, zamonaviy dolzarb muammolarni, atrof muhit bilan insonning barcha sohalarni o'rganib, hisobga olgan holda, o'quv jarayonini tashkil etish zarurligini belgilaydi. Respublikamiz Oliy o'quv yurtlarida ushbu fanning ishchi dasturlarida atrof-muhitning salbiy omillarining xususiyatlarini o'rganish, ularning identifikatsiyasi va ta'sir darajasini baholash, inson hayoti va sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishni qamrab olish orqali soha yo'nalishini rivojlantirishga erishish mumkin.

Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik asoslarini aniqlash, nazariy jihatdan asoslash hamda ularning hayot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish, darsliklar yaratish kabi mas'uliyat yuklaydi, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatishni., ...har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, ha'etda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizimini yaratishni., oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz [3].

ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi O'RQ-790-son "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 25-modda.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y.,

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. www.president.uz

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.